



**MAMLAKATIMIZDA ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI
TARAQQIYOTING ENG ASOSIY VA ZARURIY SHARTI**

Qo`qon universiteti f.f.d va. b.dotsent Mavlonov Ilxom Xolmirzayevich

Lingvistika: ingliz tili yo`nalishi 1-kurs magistranti

Sobirov Sardorbek Yorqinjon o`g`li

Email: amateur212001@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligining jamiyat taraqqiyotidagi o`rni, ularning demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi ahamiyati yoritiladi. Qonun oldida tenglik, inson huquq va erkinliklarini ta`minlash, sud-huquq tizimini isloh qilish orqali barqaror rivojlanishga erishish masalalari tahlil qilinadi. Adolatli jamiyat qurishda qonun ustuvorligi asosiy mezon sifatida qaralib, uning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ta`siri ochib beriladi.*

Kalit so`zlar: *adolat, qonun ustuvorligi, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, inson huquqlari, sud-huquq tizimi, huquqiy madaniyat.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье рассматривается роль правосудия и верховенства права в развитии общества в нашей стране, их важность для построения демократического государства и гражданского общества. Анализируются вопросы равенства перед законом, обеспечения прав и свобод человека, а также достижения устойчивого развития посредством реформы судебной и правовой системы. Верховенство права рассматривается как главный критерий построения справедливого общества, и раскрывается его влияние на социально-политическую жизнь.*



Ключевые слова: правосудие, верховенство права, демократическое государство, гражданское общество, права человека, судебная и правовая система, правовая культура.

ABSTRACT: This article examines the role of justice and the rule of law in the development of society in our country, their importance in building a democratic state and civil society. The issues of equality before the law, ensuring human rights and freedoms, and achieving sustainable development through reform of the judicial and legal system are analyzed. The rule of law is considered as the main criterion in building a just society, and its impact on socio-political life is revealed.

Keywords: justice, rule of law, democratic state, civil society, human rights, judicial and legal system, legal culture.

KIRISH

Bugungi globallashuv va tezkor rivojlanish sharoitida har bir davlatning barqaror taraqqiyoti, avvalo, adolat va qonun ustuvorligining ta'minlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Jamiyatda tinchlik-osoyishtalik, ijtimoiy barqarorlik hamda fuqarolarning ertangi kunga bo'lgan ishonchi aynan qonunlarning ustuvorligi va ularning adolatli ijrosi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois, mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida adolatni qaror toptirish, qonunlarga hurmat ruhini mustahkamlash ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan.

Adolat va qonun ustuvorligi nafaqat davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshiradi, balki inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, jamiyatda tenglik va ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Aynan shu omillar mamlakat taraqqiyotining eng asosiy va zaruriy sharti sifatida e'tirof etilib, bugungi islohotlar markazida turibdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Qonun ustuvorligi har bir davlat va jamiyat taraqqiyotining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, aynan uning ta'minlanishi orqali demokratik institutlar



faoliyati, inson huquq va erkinliklarining ro'yobga chiqishi kafolatlanadi. Qonunlarda xalqning irodasi, orzu-intilishlari hamda manfaatlari mujassam bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish ustuvor maqsad sifatida belgilangan. Bu jarayonda qonun ustuvorligini mustahkamlash, shaxs, oila, jamiyat va davlat manfaatlarini ishonchli himoya qilish, aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolarda qonunga hurmat va unga rioya etish tuyg'usini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga tayangan demokratik va huquqiy davlat hamda erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish nafaqat pirovard maqsad, balki ayni paytda uning eng muhim sharti va vositasi hamdir.

Inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlari faoliyatining hisobdorligi va ochiqligini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, shuningdek, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini yuksaltirish yo'nalishida izchil chora-tadbirlar amalga oshirildi. So'nggi besh yilda olib borilgan keng ko'lamli islohotlar natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etish uchun zarur bo'lgan siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-ma'rifiy asoslar shakllantirildi.

Keng jamoatchilik muhokamasi asosida ishlab chiqilgan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga muvofiq belgilangan yettita ustuvor yo'nalishdan biri adolat va qonun ustuvorligini mamlakat taraqqiyotining eng muhim va zaruriy sharti sifatida mustahkamlashga qaratilganidir. Mazkur yo'nalish doirasida ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga nafaqat jinoyat ishlari, balki fuqarolik va ma'muriy ishlar bo'yicha ham davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko'rsatish tizimini joriy etish belgilab qo'yilgan.

Mamlakatimizda hokimiyatlar bo'linishi tamoyilining amalda joriy etilgani Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta'minlashning muhim kafolati hisoblanadi. Ushbu tamoyilga ko'ra, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlari Konstitutsiya hamda qonunlarda belgilangan vakolatlar



doirasida mustaqil faoliyat yuritadi. Ularning o‘zaro munosabatlarini muvofiqlashtirishda esa eng oliy mezon sifatida qonun xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, Prezident fuqarolarning huquq va erkinliklari, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafili sanaladi (93-modda). Bu boradagi Prezident faoliyati muhim siyosiy-huquqiy ahamiyatga ega bo‘lib, uning farmon va qarorlari orqali konstitutsiyaviy tamoyillar hamda qonunlarda belgilangan normalarning hayotga to‘liq tatbiq etilishi uchun zarur huquqiy mexanizmlar yaratiladi. Qonunlarning ijrosi va huquqni qo‘llash amaliyotining samaradorligi davlat hokimiyati hamda boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining sifatiga bevosita bog‘liqdir. Bu jarayonda har bir tashkilotning yuridik xizmati zimmasiga katta mas’uliyat yuklatiladi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida to‘rtinchi ustuvor yo‘nalish sifatida qonun ustuvorligini ta’minlash va xalq manfaatlariga xizmat qiladigan davlat boshqaruvini shakllantirish belgilangan bo‘lib, u ikki kichik yo‘nalish hamda o‘n olti maqsadni o‘z ichiga oladi. Mazkur yo‘nalish davlat boshqaruvini xalqchil asosda tashkil etish, jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish, shuningdek, sud-huquq tizimini isloh qilish orqali qonun ustuvorligini mustahkamlashga qaratilgan. Ushbu ustuvor yo‘nalish doirasida qonunchilikni soddalashtirish va ixchamlashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Jumladan, normativ-huquqiy hujjatlarni maqbullashtirish hisobiga tartibga solish yukini kamida 30 foizga qisqartirish, bevosita amal qiladigan qonunlar ulushini kengaytirib, ularni kamida 60 foizga yetkazish, shuningdek, mahalliy Kengashlar va hokimliklar faoliyatiga oid mingdan ortiq hujjatlarni tizimlashtirish rejalashtirilgan.

Bu jarayonda shoshma-shosharlik va bir tomonlama yondashuvga yo‘l qo‘ymaslik muhimdir. Har bir normativ-huquqiy hujjatning amaliyotda qo‘llanishi chuqur tahlil qilinib, aniqlangan muammolar asosida ularni tizimlashtirish va takomillashtirish lozim. Asosiy e‘tibor qonunchilikning tartibga soluvchi ta’sirini har tomonlama baholashga qaratilishi zarur. Shu bois, ishlab chiqiladigan hujjatlar



loyihalari tartibga solish ta'sirini baholash mexanizmlari asosida puxta ekspertizadan o'tkazilishi talab etiladi.

Shu sababli mamlakatimizda yuridik xizmat faoliyatini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu sohadagi normativ-huquqiy baza tubdan yangilanib, yuridik xizmatning maqomi va vazifalarini belgilovchi hukumat qarorlari qabul qilindi. Adliya organlari tomonidan metodik yordam ko'rsatish, sohani rivojlantirish maqsadida ko'plab idoraviy hujjatlar ishlab chiqilmoqda hamda turli amaliy tadbirlar o'tkazilmoqda. Bundan tashqari, Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazida yuridik xizmat xodimlarining bilim va malakasi muntazam ravishda oshirib borilmoqda.

XULOSA

Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari faoliyatini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan to'liq ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari o'rtasida hujjat almashinuvini yagona elektron tizim orqali amalga oshirish nazarda tutilgan. Ushbu markazlar faoliyati bo'yicha tajriba natijalari tahlil qilinib, mavjud muammolar bartaraf etilgach, ularni respublikaning barcha tuman va shaharlarida joriy etish rejalashtirilmoqda. Bu esa, bir tomondan, tizim faoliyatini takomillashtirishga, ikkinchi tomondan esa aholining, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamining sifatli va samarali yuridik xizmatlardan foydalanishini osonlashtirishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Adolat va qonun ustuvorligi – xalqchil davlat barpo etish, inson qadr-qimmatini yuksaltirishning eng muhim va zaruriy shartidir". Darhaqiqat, adolat davlatchilikning mustahkam tayanchi hisoblanadi. Jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashda esa sud hokimiyati muhim va hal qiluvchi rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.–T.:O'zbekiston, 2017.



2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O‘zbekiston, 2017.
3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2020
4. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi
// <https://www.lex.Uz>